

9-aprel – Amir Temur tavallud topgan kun

*Katta ishonch bilan shuni ta'kidlashim kerakki, bu yurtning farzandlari, Temurbekning nabiralari o'z qalblarida ulug' bobosiga xos go'zal fazilatlarini asrab-avaylab, bugungi hayotimizda ham namoyon qilmoqdalar.*

Islom KARIMOV



www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:14 (66971)

2014-yil

7-aprel



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

# KITOB BIZNING DO'STIMIZ

4-bet

Sh. MAXMADIYEV o'lgan suratlar

USHBU SONDA:

«TEMURNOMA»NING  
MUALLIFI  
yoxud buyimning  
hikoyalari 2-bet

ISTE'DODLARNI  
KASHF ETGAN  
BELLASHOV 3-bet

O'SAYOTGAN  
TOG' 6-bet

SINFDOSHIM  
CHEMPION 7-bet



# «TEMURNOMA»NING MUALLIFI

## yoʻxud buvimning hikoyalari



### «OLTIN DARAXT» AFSONAMI?

Bir kuni buvim bilan chorbogʻimizdan qaytayotib, yoʻlda shaffof suvli sharhara yonida hordiq chiqarish uchun bir dam toʻxtadik.

– Amir Temur bobongning favvorali hovuzlari, bir-biridan goʻzal bogʻlari, hatto «oltin daraxti» ham boʻlgan. U odam goʻzallikni qadrlagan, hayotdan zavq olib yashashni yaxshi koʻrgan, – dedilar. Yuragimga oʻt tushib, bir zumda sehgarga aylanib, oʻsha «oltin daraxt»ni koʻrishni orzu qildim, ammo bu ish qoʻlimdan kelmasligini bilib, shashtimdan qaytdim.

Oradan yillar oʻtdi.

Amir Temur haqidagi koʻplab kitoblardan tanishdim, hatto ayrimlariga muharrirlik qilish ham nasib etdi. Shulardan biri – Rui Gonsales de Klavixoning «Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi» kitobidan quyidagilarni oʻqidim:

«...xontaxta qarshisida eman daraxti shaklidagi «oltin» daraxt turibdi. Toboqqa oʻrnatilgan daraxtning tanasi odam oyogʻi yoʻgʻonligicha keladi. Uning shoxlarida eman daraxti barglariga oʻxshash yaproqlar har tomonga taralgan. Balandligi odam boʻyicha bor. Daraxtning sargʻish, qizil, rangori yoqultar, zumradlar, feruzalar va ajoyib, yirik-yirik tiniq, dumaloq, sara marvaridlardan «mevalari» bor edi. Bu qimmatbaho toshlar daraxtga oʻyib oʻrnatilgan. Bundan tashqari, daraxtga oltin qushchalar qoʻnib turibdi».

Bu manba bizga yana koʻp narsa haqida maʼlumot beradi. Demak, Amir Temur va temuriylar zamonida hunarmandchilik taraqqiy etib, yuksak darajaga koʻtarilgan. Oltindan qushchalar yasagan ustalarining mahorati-chi? Ularni tayyorlagan maktablarda qay yoʻsinda tahsil berilgan? Savollar koʻp. Xohlagancha fikrlash mumkin, lekin xulosa shuki, Amir Temurni behudaga ilm-fan homiysi, deysishmaydi. Eng muhimi, bugungi oʻquvchi uchun hamma maʼlumotlar bor, faqat yoshlar ularni oʻqishdan erinmasliklari kerak.

Yoz oylarida buvim bilan chorbogʻimizga keta turib, u kishidan Amir Temur haqidagi hikoyalarni eshitardim. Har safar yangi hikoya, rivoyat, ertak aytib berganlarida, xarxasha qilib: «Soʻylab berayotganlaringizning hammasi rostmi?» deb soʻrar edim.

– Rost, bolam, rost. Qogʻozga yolgʻonni soʻylab boʻlmaydi. Sen ham qogʻozga yolgʻonni soʻylama, – derdilar.

### TOʻRT KISHILIK SHAXMAT

Chorbogʻda oʻtirganimizda, buvim: – Amir Temur bobong shaxmatni yaxshi koʻrgan, sen ham oʻrganib qoʻy, kerak boʻladi! – dedilar.

Oʻshanda shaxmat oʻynashni oʻrganib olgan edim.

Darvoqe, Amir Temurning shatranjda juda mohir boʻlgani tarixdan maʼlum. Uning doimiy ravishda shaxmat yigʻinlarini oʻtkazib turganini, oʻsha zamondagi eng mohir shaxmatchilarga eʼtibor qaratganini ham yaxshi bilamiz. Ana shunday shatranj ustalaridan biri – Ali Shatranjiy Samarqandiy edi. Bevosita Sohibqironning koʻrsatma va maslahatlari bilan Ali Shatranjiy Samarqandiy oʻz risolasida 60 ta mansuba toʻplab, ulardan 19 tasini mustaqil oʻzi tuzishga erishadi.

Amir Temur u bilan teppa-teng dona surgan. «Shatranji kabir» uning eng sevimli mashgʻuloti edi. Bir vaqtda 4 kishi bilan 4 taxtada gʻoyibona oʻynay olgan. Bu hammaga ham nasib etavermaydigan isteʼdoddir.

### AYLANADIGAN SOYABON

Bozor kunlarida buvim osh pishirardilar, men zigʻir yogʻ olib kelish uchun oyjuvozga borardim. Oyjuvozga qoʻshilgan ot, uning xumga oʻxshash katta idishda turgan archa yogʻoch atrofiga aylanishi, boʻynidagi toʻrvasi meni juda ajablantirardi. Oyjuvoz oldida turgan katta chit soyabon ham nazarimdan chetda qolmasdi. Koʻrganlarimni buvimga soʻzlab berardim.

«Men oʻqigan edimki, Amir Temurning quyosh harakatiga qarab aylanadigan soyabonlari boʻlgan ekan. Xuddi kungaboqarlarga oʻxshab ertalab Sharqqa, tushdan soʻng Gʻarbiga ogʻar ekan», dedilar bir kuni buvim.

Uzoq yillar bu gap xotiramni bezovta etib yurdi, goh ishonдим, goh ishonmadim.

Yana Klavixon janoblarining kitobi dilimning qorongʻi tublarini yoritadi:

«...chodir eshigi oldida rang-barang shohidan tikilgan soyabon quyosh harakatiga qarab aylanib, chodir eshigi oldini hamisha soya qilib turardi».

### TARIX - XAZINA

Fotima buvim bilan chorbogʻimizda piyoz oʻtoq qilayotgan edik, ular xamsanavislar haqida gapirib qoldilar. Shunday asar yozgan uch muallifning nomini aytib: «Yana Abdurahmon Jomiyning jiyani Abdulloh Hotifiy ham payrav tarzida «Xamsa» yozgan, lekin beshinchi kitobni tugatish unga nasib etmagan», dedilar.

Darvoqe, Abdulloh Hotifiy haqida.



U dastavval «Layli va Majnun», «Xisrav va Shirin», «Haft Manzar» kabi dostonlarni yozdi. «Iskandarnoma»ni yozishga kelganda, oʻylanib qoldi va xamsanavislikda yangilik qilishga jazm etdi, yaʼni «Temurnoma» dostonini bitdi.

Olti yarim ming baytdan iborat dostonda Amir Temur siyмосi xolisona tasvirlangan. Uning ozodlik va adolat istab, jahon maydoniga chiqishi, soʻzida turmay nomardlik qilgan Toʻxtamishxon va oʻziga katta baho bergan Boyazid Yildirimlarni insofga chaqirib, sulhga undab yozgan maktublarida, buyuk hukmdorlarga xos boʻlgan oqillik va mulohazakorlik, doʻst va dushmaniga baho berish xislatlari yaqqol koʻrinadi.

Doston yakunida forsiy shoir Abdulloh Hotifiy:

«Agar Firdavsiy qadimgi Eron shohlari, boshqa shoirlar Iskandar Zulqarnayn haqida yozgan boʻlsalar, men podishohlarning eng ulugʻi haqida doston yozdim», deya oʻz asari qahramoni bilan faxrlangan.

Tarix – xazina, deb bejiz aytmaydilar. Uning qatlamlarini oʻrganib, yangi-yangi xazinalarga duch kelasiz, muhimi, ushbu maqolamiz orqali oʻsib kelayotgan navqiron avlodning tariximizni oʻrganishga boʻlgan qiziqishini qoʻllab-quvvatlab, oʻzlarini ham yangi orzular chamaniga boshlagan boʻlsak, behad mamnunmiz.

Toʻlqin HAYIT,  
Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan madaniyat xodimi

## AMIR TEMUR HAQIDA

*Kimki oʻzbek nomini, oʻzbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umum-bashariyat rivojiga qoʻshgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi boʻlsa, Amir Temur siyмосini eslashi kerak!*  
Islom KARIMOV

*Amir Temurga doʻstlik huzur bagʻishlar edi. Yoqimlilik tufayli doʻstlar orttirdi, ularni qadrlay bildi, ularga doʻst hisoblanishdan or qilmadi. Zero, Amir Temur doʻstlikka faqat doʻstlik bilangina javob berish mumkinligini yaxshi bilardi.*

L. LANGLE

*Amir Temur jonboz bunyodkor edi, u ajoyib bogʻ-rogʻli muhtasham inshootlar barpo etdi, shahar va qishloqlarni tikladi. Sugʻorish tizimlari barpo qildi va taʼmirladi, rasmiy tarix taʼbiriga koʻra, u ekin ekishga yaroqli bir qarich yerni ham bekor qoʻymasdi.*

V. V. BARTOLD

## SOHIBQIRON HIKMATLARIDAN

*Chin doʻst uldirki, doʻstidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.*

\*\*\*

*Biror ishni bajarishni oʻylasam, butun zehnim, uyjudim bilan bogʻlanib, bitirmagunimcha undan qoʻlimni tortmadum. Har neki desam, unga oʻzim amal qildum.*

\*\*\*

*Tajribamda koʻrilgankim, azmi qatʼiy, tadbirkor, hushyor, jang koʻrgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir.*





## USTOZIM - FAXRIM

Istiqlol yillarida yurtimizda bolalar sportiga berilayotgan katta e'tibor bizni behad quvontiradi. Yurtboshimiz tomonidan joriy yilning «Sog'lom bola yili» deb nomlanishi ham mamlakatimizda biz yosh avlod kamolotiga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor namunasidir.

Quvonarlisi, maktabimiz o'quvchilari yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, ta'limda, sportda yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelishmoqda. Ustozimiz Hoshiya opa Turdiyevaning o'ta talabchanligi, ta'lim dargohimizda «Yosh sportchilar» to'garagi faoliyati muntazam yo'lga qo'yilganligi, o'quv dargohimizdan viloyat va respublika chempionlari yetishib chiqishiga zamin yaratmoqda. 2010-yilda «Quvnoq startlar» televizion musobaqasida ishtirok etgan maktabimiz jamoasi respublikada 1-o'rinni egallab, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda «Yoshlik» jismoniy tarbiya va sport jamiyati markaziy Kengashining diplomlari bilan taqdirlandi.


Biz Hoshiya opa kabi jonkuyar ustozlarimiz bilan faxrlanamiz va kelajakda ulardek o'z kasbining fidoyisi bo'lishga harakat qilamiz.

Zarnigor  
RUSTAMALIYEVA,  
Sirdaryo viloyati,  
Mirzaobod tumanidagi  
32-umumta'lim  
maktabining 8-sinf  
o'quvchisi



## DARYODIL SHOIR

Ayni kunlarda yurtimizda Muhammad Yusufning 60 yilligi keng nishonlanmoqda. Ushbu sana munosabati bilan maktabimizda ham she'rxonlik kechasi bo'lib o'tdi. Tadbirda shoiming hayotiga bag'ishlangan sahna ko'rinishi namoyish etilib, she'rlaridan namunalarni o'qildi. Men ham kechada shoirga atab yozgan she'rimga o'qib berdim.



Tadбир so'nggida dugonam Gulchiroy Sahobiddinovaning raqsi barchada katta taassurot qoldirdi. Tadbirda faol qatnashgan o'quvchilar maktab ma'muriyati tomonidan «Faxriy yorliqlar bilan taqdirlanishdi.

Mohinur ABDUSATTOROVA,  
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi  
34-maktab o'quvchisi

\*\*\*

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ona Vatan haqidagi yozgan she'rlari kishi ko'nglini jumbushga keltirmay qo'yamaydi. Uning sodda, samimiy she'rlarida yurtga mehr-muhabbat ufuur turadi. Shuning uchun ham shoir el-yurt oldida hurmat-ehтиromga sazovor bo'ldi.

Men ham Muhammad Yusufning she'rlarini ko'p mutolaa qilaman. Oddiy so'zlardan betakror ijod namunalarini yarata olgan shoiming she'rlaridan yod olishni tengdoshlarimga maslahat bergan bo'lardim.

Sitora PARDAYEVA,  
poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 131-maktabning 7-sinf o'quvchisi

# ISTE'DODLARNI KASHF ETGAN BELLASHUV

Iqtidorli tengdoshing

Mamlakatimizda yosh avlodni yurtga sadoqat, ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ular qalbida fidoyilik, to'g'riso'zlik, halollik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirish, bir so'z bilan aytganda, farzandlarimizni kelajagimizning munosib vorislari etib tarbiyalash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Iqtidor egalarini kashf etish, ularni har jihatdan rag'batlantirib borish maqsadida qator ko'rik-tanlovlarni o'tkazilmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizda «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi hamkorligida musiqa maktablari o'quvchilari o'rtasida an'anaviy «San'at g'unchalari» Respublika yosh musiqachilar ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Unda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahridagi musiqa maktablarida tahsil olayotgan, tanlovning viloyat bosqichlarida g'oliblikni



yo'nalishi o'quvchisi Ashraf Qaytmasov. – Ustozim Shuhrat aka Boliyevdan nog'ora, marimba, vibrofon, litavra singari zarbli cholg'ularni chalish sirlarini qunt bilan o'rganmoqdaman.

– Men Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at litseyining damli cholg'u asboblari bo'limining 5-sinfida o'qiyman. Qo'limdagi mana bu cholg'u asbobining nomi fleyta-pikkolo bo'lib, u G'arb musiqa asbobi sanaladi. Ustozim Abdulaziz aka Abdusalomov rahbarligida «Paxta raqsi», «Nostalgiya» singari kuylarni mustaqil

chalishga o'rgandim. Kelgusida ustozlarimning ishonchlarini oqlash uchun bundan ham katta yutuqlarni qo'lga kiritmoqchiman, – deydi kichik guruhlarni orasida 1-o'ringa sazovor bo'lgan Barno Mirzaboyeva.

– San'atkorlar oilasidan bo'lganligim bois, men ham shu sohani tanladim. Qo'limdagi cholg'u asbobi «gaboy» deb nomlanib, u dastlab Fransiyada ixtiro qilingan. Hozirda bu musiqa asbobi



Shohsanam

cholg'ular yo'nalishi bo'yicha tahsil olayman, – deydi Ijobat Mo'minova.

Nihoyat, tanlovning eng oliy mukofoti bilan taqdirlash fursati yetib keldi. Zaldagilarning gulduros qarsaklari ostida Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyining 7-sinf o'quvchisi Shohsanam Xo'janoyozova sahnaga chiqdi. U mazkur musobaqaning damli cholg'ular yo'nalishi bo'yicha hakamlar tomonidan oliy sovrin – Gran-priga sazovor bo'ldi.

– Bolaligimdan fleyta musiqa asbobini chalishga qiziqaman. Ushbu tanlovdagi muvaffaqiyatli ishtirokim bilan ustozim Alisher Sayfullayevning ishonchlarini oqlaganimdan xursandman, – deydi Shohsanam quvonib.

Ko'rik-tanlov g'oliblari hamda sovrindorlari «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya fondi tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanildi.

Ozoda TURSUNBOYEVA.

Suratlar muallifi: Zuhra NISHONOVA



Ashraf

iste'dodlarini namoyon etdilar.

– Men ushbu tanlovga Samarqand viloyatining Jomboy tumanidan keldim, – deydi 10-bolalar musiqa va san'at maktabining zarbli cholg'ular



Ijobat



**Aziz kitobsevar o'quvchilar! Respublikamiz maktablarida «Farzandimga kitob sovg'a qilaman» loyihasi doirasida bir-biridan ajoyib tadbirlar o'tkazilayotganidan xabaringiz bor. Bu ezgu ishlar samarasi o'laroq, ko'plab ota-onalar farzandlariga o'zlari yoqtirgan kitoblarini sovg'a qilib, ularning bilim doirasini kengayishiga yuqindan ko'mak bermoqdalar.**

**Bo'lib o'tayotgan aksiyaning yana bir ajoyib tomoni, o'quvchilar fidoyi ustozlari bilan birga kitob do'konlariga sayohat uyushtirib, dunyoqarashlarini yanada boyitmoqdalar.**

**Tahririyatimiz xodimlari ana shu tadbirlarda ishtirok etib, olam-olam quvonchga to'lib qaytdilar.**

# KITOB BIZNING DO'STIMIZ

## KUTUBXONADAN BOSHLANGAN BAYRAM

Aziz bolajonlar, bilasizmi, Markaziy Osiyo hududida ilk kutubxona eramizning II asrida Xorazmda bunyod etilgan ekan. Bugun esa mamlakatimizda muhtasham va zamonaviy, barcha qulayliklarga ega kutubxonalar talaygina. Ular orasida Respublika Bolalar kutubxonasi kitob fondining boyligi, axborot telekommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani, eng asosiysi, mutolaa zallarida yosh kitobxonlar uchun qulay sharoitlar yaratilgani bilan ajralib turadi. Bugun sizlarga ushbu maskanda bo'lib o'tgan

«Bolalar kitobi – sog'lom bola ma'naviyati asosi» mavzusidagi tadbir xususida so'zlab bermoqchimiz.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiyada so'zga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati Hafiza opa Karimova ta'kidlaganlariday, sog'lom bola deganda, eng avvalo, ma'naviy jihatdan yetuk avlod nazarda tutiladi. Kitob esa ma'naviyatning asosidir. Bu fikrni tadbirda ishtirok etgan bir qator jamoat tashkilotlari vakillari bilan birga Erkin Malik, Dilshod Rajab kabi bolalar yozuvchi va shoirlari ham

tasdiqlashdi.

Ha, bu tadbir chinakam kitob bayramiga aylanibdi-da, deb o'ylayotgan bo'lsangiz, adashmadingiz. Zero, tengdoshingiz Olmazor tumanidagi 24-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi Fayzullo Sagdullayev ham o'z taassurotlarini biz bilan o'rtoqlashar ekan, ana shu fikrni bildirdi.

Biz esa bugun jamiyatimizda bolalar kitobxonligiga qaratilayotgan e'tibordan oqilona foydalanib, har biringiz kitob bilan do'st tutinasiz, degan umiddamiz.

## MA'NAVIYAT BULOG'I

Chilonzor tumanidagi 270-maktab hovlisi o'quvchilar-u ota-onalar va mehmonlar bilan gavjum. «Xalqaro bolalar kitobi kuni» munosabati bilan mazkur ta'lim maskanida «Farzandimga kitob sovg'a qilaman» nomli tadbir bo'lib o'tdi. Buni qarangi, aksiya doirasida turli nashriyot uylari tomonidan chop etilgan rang-barang badiiy va bezakli kitoblar darrov o'z xaridorlarini topdi.

Maktab direktori Yoqutxon opa Fayziyeva o'quvchilarning kitobxonliklarini ko'rib, behad quvondi. 3-«B» sinf o'quvchisi Aziz Abdurahmonov esa bugungi tadbir bayramga aylanib ketdi, deydi hayajonlanib.

Tadbirni uyushtirishda maktabning ma'naviyat rify ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari Elvira opa Yusupova va Sayyora opa Xoliqova hamda maktab kutubxona mudiri Latifa opa Ergashevaning hissasi katta bo'ldi.

Chilonzor tumani xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudiri Tohir aka Matyoqubov, tuman Ma'naviyat targ'ibot markazi rahbari Gulchehra opa Dostmetova ta'kidlaganlaridek, o'quvchilarning ilm-u ma'rifatga bo'lgan ishtiyoqlari kitob orqali yuksalib boraveradi.

## QADRDON HAMROH

Shayxontohur tumanidagi 102-umumta'lim maktabi nafaqat poytaxtimizda, balki respublikamizdagi ibratli bilim maskanlaridan biridir. Ayniqsa, muhim sanalarga oid tadbirlar o'tkazishda bu bilim maskani o'ziga xos tajriba va an'analarga ega.

«Xalqaro bolalar kitobi kuni»ga bag'ishlangan «Farzandimga kitob sovg'a qilaman» loyihasi doirasida bo'lib o'tgan «Hikmatlar xazinasi kitobdir» mavzusidagi anjuman ham mazkur maktab o'quvchilari qalbida

bir umrga muhrlanib qolsa, ajab emas.

Kitob bayramida qatnashgan boshlang'ich sinf o'quvchilarining «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar», «Oilada kitobxonlik», «Sinfidan tashqari o'qish», «Kitob o'qidim va o'zimni angladim», «Kitobxon o'quvchi» mavzularidagi fikr-mulohazalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, bolalarning o'zlari mutolaa qilgan kitoblari asosida chizgan rasmlari barchani xushnud etdi.

7-«V» sinf o'quvchisi Dilbar O'lmasova eng yaxshi kitobxon o'quvchi sifatida e'tirof etilib, yangi kitoblar bilan taqdirlandi.

Tadbir doirasida maktab rahbariyati tomonidan kitoblar yarmarkasi ham tashkil etildi. Anjumanda mehmon bo'lgan ota-onalar farzandlari uchun kitoblar xarid qildilar. Zero, tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad ham bolajonlarni kitobga oshno etishdan iborat edi.

## ENG YAXSHI SOVG'A

Poytaxtimizdagi 201-maktabda ham «Farzandimga kitob sovg'a qilaman» loyihasi doirasida tadbir bo'lib o'tdi. Unda 1-9-sinf o'quvchilari, ularning ota-onalari, adabiyot ixlosmandlari ishtirok etishdi.

Maktab direktori Dilfuza Haydarova bayramga tashrif buyurganlarni qutlab, kitobning inson hayotida tutgan o'rni haqida so'z yuritdilar. Shundan so'ng, o'quvchilar ijrosida kitobni sevish, ona Vatanni qadrlash mavzusidagi qo'shiqlar yangradi.

Maktabimizda 690 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ular orasida kitobga mehr qo'yan bolalar juda ko'p. Kutubxonamizdan o'zbek va jahon bolalar

yozuvchilarining eng sara kitoblari o'rin olgan bo'lib, yildan yilga fondimiz yangi asarlar bilan boyib bormoqda, – deydi kutubxonachi Zulfiya Aripova.

Bayramda farzandining iste'dodidan bahramand bo'lgan ota-onalar o'g'il-qizlariga ajoyib kitoblar sovg'a qilishdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kitob mutolaasi – donolar suhbatiga oshno bo'lmoq, ularning bilim va fikrlar xazinasidan dur-u gavhar termoq bilan barobardir. Unga mehr qo'yan inson esa hamma davrlarda ham munosib taqdirlanadi.

O'z muxbirlarimiz





# ORZULARI BIR JAHON

Aziz o'quvchilar, orangizda izlanuvchan, bilimdon, zukko yoshlar ko'pligi bizni behad quvontiradi. Quyida ana shunday yosh iqtidor sohiblaridan biri bilan yaqindan tanishasiz.



go'zal she'rilarini mutolaa qilishni yoqtiradi. Tengdoshingiz tahsil olayotgan maktabda yoshlarga jonkuyar, o'z kasbining fidoyi insonlari saboq beradilar. Ayniqsa, maktab direktori Dilshoda To'rayeva shogirdlaridan yordamini aslo ayamaydi.

Qolaversa, «Surxon tongi» gazetasi Bosh muharriri Isroil Shomirov ham Gulmira kabi adabiyotga, she'riyatga mehri baland yosh ijodkorlarga to'g'ri yo'l ko'rsatib, yaqindan ko'mak berib kelmoqda.

— Mendagi she'riyatga bo'lgan ishtiyoqni onajonim uyg'otganlar. Shu kungacha o'z ijod namunalirim bilan viloyat miqyosida o'tkazilgan ko'riktanlovlarda faol ishtirok etib kelmoqdaman.

Jumladan, o'tgan yili Termiz shahrida o'tkazilgan «Baxtli bolalik» tanlovining viloyat bosqichida muvaffaqiyatli qatnashib, I darajali diplom bilan taqdirlandim. Kelajakda Zulfiyaxonim kabi el ardog'idagi shoira bo'lishni orzu qilaman, — deydi Gulmira.

## BAHOR, SENGA HAVAS QILDIM

Bahor keldi elimizga,  
Yasharish bor dilimizda.  
Yam-yashildir hur vodiylar,  
Ko'rk yarashgay siz-u bizga.

Qizlar chiqdi qir bag'riga,  
Ko'ngillarini shod aylashib.  
Qaynar yana sumalaklar,  
Momolarim pand so'zlashib.

Varraklarin varillatib,  
Yuguradi kimdir shodon.  
Bahor, senga havas qildim,  
Gullab ketdi O'zbekiston.

Gulmira ISMOILOVA

Manzura UBAYDULLAYEVA

Gulmira Ismoilova — Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi 13-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi. U maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, bo'sh vaqtlarida she'r yozishni, xalqimiz ardog'idagi ustoz shoirlarning

Kariyes (tish chirishi) kasalligi bolajonlar orasida ko'p uchraydi. Kasallikning oldini olish uchun nimalarga e'tibor berish kerak? Bu haqda oliy toifali shifokor Manzura o'pa Fayziyeva bizga quyidagilarni so'zlab berdi:

## TISHLARINGIZNI ASRANG



— Kariyes — tish to'qimalarining zararlanishi, emal, dentin, sementning yemirilishi hodisasi bo'lib, u to'laqonli

ovqatlanmaslik, a'zolar kasallanishi, suvda ftor moddasining me'yoridan pastligi, ovqatdan so'ng tishlarni tozalamaslik natijasida paydo bo'ladi. Tishlarda oq, qora va jigarrang dog' paydo bo'lishi, uning ilk belgilaridir. Dog' asta-sekin kengayib, kovakka aylanadi. Oq dog'li kariyes qora va jigarrangga nisbatan ancha tez rivojlanadi.

Ko'p shirinlik iste'mol qilish, shamollash yoki qo'llarni yuvmay ovqatlanish ham bolalarda kariyes kasalligining rivojlanishiga olib keladi. Agar bolajonlar bog'cha va maktab yoshidan boshlab kuniga ikki mahaldan tishni yuvish, ovqatlanish tartibiga rioya qilib borsalar, tish og'rig'i ularni sira bezovta qilmaydi. Toza havoda sayr qilish, suv muolajalari va sport bilan muntazam shug'ullanish ham ushbu kasallikning oldini oladi.

O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi Muxlisa XOLMATOVA yozib oldi

## MY FAMILY MEMBERS — MENING OILA A'ZOLARIM

1. A grandfather — buva



2. A grandmother — buvi  
3. A mother — ona



4. A father — ota  
5. A sister — opa, singil  
6. A brother — aka, uka  
7. An uncle — tog'a, amaki  
8. An aunt — xola, amma  
9. A niece — jiyani (qiz jiyani)  
10. A nephew — o'g'il jiyani  
11. A mother-in-law — qaynana

12. A father-in-law — qaynata  
13. A granddaughter — qiz nabira  
14. A grandson — o'g'il nabira  
15. A daughter — qizi



16. A son — o'g'li  
17. A cousin — xolavachcha, ammavachcha, tog'avachcha, amakivachcha  
18. A sister-in-law — qayinsingil, qayinopa  
19. A brother-in-law — qayinaka, qayinuka  
20. Children — bolalar  
21. A husband — eri  
22. A wife — xotini  
23. Parents — ota-ona  
24. A son-in-law — kuyovi  
25. A daughter-in-law — kelini

Risolat ISMOILOVA


## Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

My dear friends if you know spring is warm, summer is hot, autumn is cool and winter is cold. So dear pupils find the weather condition from the temperature and write them.

Aziz do'stlarim, bilasiz, bahorda iliq, yozda issiq, kuzda salqin, qishda esa sovuq havo bo'ladi. Shunday ekan, qadrli o'quvchilar, haroratga qarab ob-havoning holatini toping va yozing.

Find these words correct meaning: Ushbu so'zlarni tarjimasini toping:

hot — muzlamok  
cool — salqin  
cold — iliq  
freezing — issiq  
warm — sovuq



O'zDJTU talabasi Dinara SHAKIROVA tayyorladi



**MEHRI JO'SHQIN YAGONAM**



Tengi yo'qsiz dunyoda,  
Mehri jo'shqin yagonam.  
Sizni jondan sevaman,  
Qadrdon, aziz onam.

Bu olamda a'losiz,  
Cheksiz mehri daryosiz.  
Donolardan donosisz,  
Mehribon, aziz onam.

Quyoshdek porlab turing,  
Bizlami chorlab yuring.  
Porloq baxtimiz ko'ring,  
Nurafshon, aziz onam.

**Mehrino NURMATOVA,**  
Namangan viloyati, Uychi tumanidagi  
34-umumta'lim maktabi o'quvchisi



**QUYOSH TAFTIDAN ILIQ**

Ijod yelkamdagi qanotlar,  
Gullar azal poyandoz menga.  
Bahor meni sog'inib kelar,  
Chunki o'xshamayman hech kimga.

Mehrim quyosh taftidan iliq,  
Orzularim o'sha-o'sha ko'p.  
Yuragimda tuyg'ular tiniq,  
Tuhfa etar shodligim to'p-to'p.

Bir lahzaki naqadar dilbar,  
Ilhomga belanib qolgan dam.  
Dildan oqqa ko'chgan satrlar,  
Ko'zlarimni aylaydi ko'klam.

**Dilafro'z AYTBAEVA,**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi,  
Taxiatosh shahri



**SOG'LOM BOLA**

Sog'lom bola erta tong  
Tura oladi.  
Hovli, bog'da chopqillab  
Yura oladi.

Sovuq suvda yuzini  
Yuvib, artadi.  
Mashqi baland, albatta,  
Kuchi ortadi.

Qaymoqqa non botirib,  
Etar nonushta.  
Xonasini supurib,  
Saqlar sarishta.

Ukasiga koptogin,  
Tutar ilinib.  
Saxiyiligi hozirdan,  
Borar bilinib.



To'lib yoshi oltiga,  
Sanar yuzgacha.  
O'sib borar bo'yi ham,  
Oltin kuzgacha.

Bog'cha opa jilmayib,  
O'par yuzidan.  
Kuzatadi uyiga,  
Boqib izidan.

**Vali AHMADJON,**  
Farg'ona viloyati,  
Bag'dod tumani

**OILAMIZ NURGA TO'LADI**



Osmonda yulduzlar porlab turadi,  
Otam meni mudom qo'llab yuradi.  
Onamiz mehri bizga beradi,  
Mening singillarim quvnoq yuradi,  
Bundan oilamiz nurga to'ladi.

**Husnora JALG'ASHEVA,**  
Toshkent shahar, Chilonzor  
tumanidagi 179-maktabning  
4-sinf o'quvchisi



Bu voqea yaqinda sodir bo'ldi. O'shanda xizmat safari bilan Farg'ona vodiysiga yo'l olgandim. Yo'lovchi mashinada ertalab yo'lga tushdim. Orqa o'rindiqda bir otaxon nabirasi bilan, men haydovchining yonida gurunglashib ketyapmiz. Otaxonning nabirasi 6-sinfda o'qir ekan, ismi Akmal. U har zamonda buvasidan, toqqa yetdikmi, deb so'rab qo'yadi. Buvasi ham nabirasining boshini silab, yo bumini chimchib qo'yadi va ozgina qoldi, deb yupatadi.

**O'SAYOTGAN TOG'**

Angrendan o'tib, dovon yo'lga tushdik. Qir-tepalar yo'l davomida purviqor tog'larga ulanib bormoqda. Ortimga o'girilib, Akmalga qarab qo'yaman va hayron bo'laman. Yo'lga tushganimizdan beri, qachon toqqa yetamiz, deb so'rayotgan bola ulkan tog'larga beparvo qarab borardi. Bir mahal yana uning ovozi eshitildi.  
- Bobo, toqqa yetdikmi?  
Men yana ajablanib, ortimga qaradim. Shu payt haydovchi tezlikni biron oshirdi.  
- Hozir o'n daqiqada yetib boramiz, - dedi ravon yo'lda g'izillab ketayotgan mashinasining tezligidan zavqlanib.  
Chamasi o'n daqiqalar o'tgach, mashinamiz sekinlab, yo'l bo'yida to'xtadi.  
- To'g'risida to'xtatdim, - dedi haydovchi jilmayib.  
- Mazza qilib tomosha qilinglar.  
Shu chog' Akmalga ko'zim tushib, bir zum to'xtab qoldim. Bolaning ko'zleri quvonchdan



porlardi. Qo'lidagi fotoapparatini olib, soy ichidagi kichkina tog'ni suratga olishga kirishdi.  
- Buva, qarang, o'sayotgan tog', ustozimiz u haqda gapirib beruvdilar. Endi men uning rasmini o'rtoqlarimga ham ko'rsataman. Bolaning zavqi biz kattalarga ham o'tdi.

- Har gal shu yerdan o'tayotganimga, yo'lovchilar tog'ni tomosha qilib turgan bo'ladi, - dedi haydovchi.  
- Bu dunyodagi eng tez o'sayotgan tog' emish.  
Shu topda o'zimdanda xafa bo'lib ketdim. Necha martalab shu yo'ldan o'tib, tabiatning bu mo'jizasi bilan qiziqmabman ham. Namangan viloyati chegarasiga o'tish joyda, soy ichidan o'sib chiqqan tog' bugun hammaning e'tiborida. Hisor tog' tizmalarining davomchisi bo'lgan yangi «tog'»cha dunyo olimlarining ham hayratini oshirmoqda. Aytishlaricha, «Kichkintoy» yiliga bir metrga o'smoqda. Olimlarning fikricha, bunaqasi hali hech yerda kuzatilmagan ekan.  
Biz tomoshani tugatib, yo'lda davom etdik. Agar Qamchiq dovoni tomon yo'lingiz tushsa, albatta, siz ham «jajji» tog'ni ko'rib o'tishni unutmang. Ha, aytganday, dovonda temiryo'l yo'tqizish ishlari ham jadal bormoqda. Bu ham kam mo'jiza emas. Xullas, bee'tibor bo'lmang. Yurtimiz go'zalligidan zavqlanib yashang.

**Yusuf ABDULLAYEV,**  
Muallif olgan surat



**OCHIL DILIM**

Ochil dilim g'unchalarday qatma-qat, Turnalarday ko'kka uchgil hadma-had. Unutmagil, gullamoq ham muvaqqat - Gul hididan ruhim bo'lsa mast bugun, Yaproqlarni sog'inganim rost bugun.

Maysa bo'lib tuproqlarni yorgan dil, Yaratganga yig'lab-yig'lab borgan dil. O'z jonini boychechakka qorgan dil, Poying uzra yetti osmon past bugun, Tuproqlarni sog'inganim rost bugun.

Men o'zimni ko'klamga almashgayman, Unday inja olamga almashgayman. Ming so'zimni bir bargga almashgayman, Dil gullamoq orzusiga qasd bugun, Yaproqlarni sog'inganim rost bugun.

**Sanobar MEHMONOVA**



## ULAR MALAYZIYAGA BORISHADI

*Kuni kecha Buxoro shahrida muaytay bo'yicha 1995–1996-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtasida mamlakat chempionati o'tkazildi.*

Iqtidorli yosh muaytaychilar 14 vazn toifasida g'oliblik uchun kuch sinashishdi. Musobaqaning vazni 45 kilogrammgacha bo'lgan sportchilar bahsida poytaxtlik Fazliddin Hikmatullayev oltin medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, 51 kilogramm vaznda mezbon sportchi Behruz Mardonovga teng keladigani topilmadi. Toshkent shahridan Akobir Orifjonov, Qahramon Ollaberganov, Alisher Norqo'ziyev, Asror Normurodov, andijonlik Odiljon Sotqinov, Mansur Tolipov, buxorolik Farhod



Qahramonov, samarqandlik Temur Jabborov, Muhammad G'ulomhasanov, Ismoil Abdulhalimov, San'at Qahramonov va qoraqalpog'istonlik Muhammad Qo'chqorov shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy olishdi. Musobaqa g'oliblari muaytay bo'yicha yoshlar terma jamoamiz safida Malayziyada bo'lib o'tadigan yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida ishtirok etishadi.

Shoh MUHAMMAD

*Mamlakatimizdagi umumta'lim maktab o'quvchilari ta'lim olish barobarida, zamonaviy sport zallari va maydonlarida sport bilan muntazam shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.*

## ISHTIYOQ G'ALABAGA UNDAYDI

Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 319-umumta'lim maktabida ham o'quvchilarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Bu ta'lim muassasasidagi futbol, basketbol, voleybol, qo'l to'pi, stol tennis, gimnastika va shaxmat seksiyalariga 120 nafardan ziyod o'quvchi qamrab olingan. Ularga malakali murabbiylar sport sirlarini puxta o'rgatmoqda.

Maktabning qo'l to'pi to'garigidan O'zbekiston o'smirlar va qizlar terma jamoalari uchun yangi-yangi iste'dodlar yetishib chiqmoqda. Bunda malakali murabbiy Mannop Abdurahmonovning xizmatlari katta.

Iqtidorli sportchilardan Ixtiyor Qayumov, Suhrob Amirov, Shahzod Sindorov, Saidazim Tursunboyev 2012-yili Navoiyda o'tkazilgan «Umid nihollari» musobaqasining final bosqichida Toshkent shahri terma jamoasining kumush medalni qo'lga kiritishiga katta hissa qo'shdi.

Maktabning qizlar jamoasi 2013-yil «Umid nihollari» musobaqasining tuman bosqichida g'olib chiqdi. O'yinlarda mahorat ko'rsatgan Zahro Allayorova O'zbekiston o'smirlar terma



jamoasi murabbiylari e'tiboriga tushdi.

– Sport farzandlarimizning har jihatdan sog'lom o'sishiga xizmat qiladi, – deydi Zahroning onasi Hulkar Allayorova. – Qizimni sportga berishdan oldin mashg'ulotlar o'qishiga salbiy ta'sir qilmasmikan, degan hadigim bor edi. Lekin sport orqali uning salomatligi mustahkamlanayotgani, intilish va harakatlarida alohida ishtiyiq paydo bo'lganini ko'rib, to'g'ri qarorga kelganimga amin bo'ldim.

Zahro a'lo o'qishi va namunali xulqidan tashqari, nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, tengqurlariga har tomonlama o'rnak bo'lmoqda. Z. Allayorova mamlakatimiz terma jamoasi safida dastlab Tailandning Bangkok shahri mezbonlik qilgan o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida ishtirok etdi. Mazkur musobaqa iste'dodli yosh qizlarimiz uchun muvaffaqiyatli yakunlandi va qo'l to'pi bo'yicha

Italiyada bo'lib o'tadigan jahon chempionatiga yo'llanma oldi. Garchi, o'rin olish nasib qilmagan bo'lsa-da, jahon chempionatida birinchi bor ishtirok etgan qizlarimiz katta tajriba to'plab qaytishdi.

Davron SUNNATOV

*Siz suratda ko'rib turgan yosh sportchi Kamronbek Nurmuhammadov bir necha yildirki, poytaxtimizdagi 21-bolalar va o'smirlar sport maktabida sportning sambo turi bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda.*

## SINFDOSHIM CHEMPION

Sinfdoshim bugungacha shahar va respublika miqyosida o'tkazilgan qator musobaqalarda qatnashib, sovrinli o'rnlarni egalladi. Bundan tashqari, u rasm chizishga, ingliz tilini o'rganishga qiziqadi.

– Hayotimni sportsiz tasavvur eta olmayman. Tengdoshlarimga ham sport bilan shug'ullanishni tavsiya etaman. Kelajakda mohir sportchi bo'lib, yurtimiz bayrog'ini xalqaro musobaqalarda baland ko'tarmoqchiman, – deydi Kamronbek Nurmuhammadov.

Sinf rahbarimiz Nigora opaning aytishlaricha, Kamronbekka o'xshagan namunali yoshlar, kelajakda ona

Vatanimizning gullab-yashnashiga hissa qo'shadigan sodiq farzand bo'lib kamolga yetar ekanlar. Biz ham ana shunday sinfdoshimiz borligidan faxrlanamiz va unga o'xshab sport bilan shug'ullanishga, maktabdagi fanlarni a'lo bahoga o'zlashtirishga va'da beramiz.

Dildora MAHMUDOVA,  
Toshkent shahridagi  
244-maktab o'quvchisi



## YOSH ATLETLAR BAHSI

*Yaqinda Buxoroda 1999–2001-yillarda tug'ilgan qizlar o'rtasida yengil atletika bo'yicha «Bahor malikalari–2014» sport musobaqasi bo'lib o'tdi.*



O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi, Respublika Xotin-qizlar qo'mitasi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi va yana bir qancha tegishli tashkilotlar hamkorligida o'tkazilgan mazkur turnirda yurtimizning barcha hududlaridan 140 nafar sportchi g'oliblik uchun bahs olib bordilar.

Musobaqa yakunida toshkentlik Violetta Ivanina 60 va 200 metrga yugurish bahslarida raqibalariga hech qanday

imkoniyat qoldirmagan bo'lsa, xorazmlik Komila Rajabova 400 va 800 metrga yugurishda g'oliblikni qo'lga kiritdi. Toshkent viloyatilik Anjelika Belova uzunlikka sakrashda, Yevgeniya Ilinix esa to'p irg'itishda, samarqandlik Angelina Maraxovskaya balandlikka sakrashda o'zlarining bor mahoratlarini ishga solib, yakunda shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi.

400 metrga estafeta yugurish bahsida namanganlik qizlar birinchi, poytaxtliklar ikkinchi, Toshkent viloyati jamoasi esa uchinchi o'rinni qo'lga kiritdilar.

G'oliblar musobaqa tashkilotchilari tomonidan medal va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

S. TURSINOV





## SIZNING KITOB JAVONINGIZGA

### «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan ommabop eng yangi adabiyotlar

**Qadrlı o'quvchilar! Bugun sizlarga taqdim etmoqchi bo'lgan kitoblarimizdan birida «Kishining kutubxonasini ko'rib, uning aqli va fe'l-atvori to'g'risida aniq fikrga kelsa bo'ladi», deb yozilgan ekan. Shu bois, biz ham sizning kitob javoningizni mazmunli asarlar bilan to'ldirib, barchangizni komil inson bo'lib ulg'ayishingizni niyat qildik. Dastlab, sizni yuqorida keltirganimiz kabi jurma'no hikmatlar jamlangan ajoyib to'plam bilan tanishtiramiz.**

## «HIKMATLAR SHODASI»

Mazkur kitobga yosh avlodni ezgulikka, mehnatsevarlikka, insonparvarlikka chorlovchi hikmatli so'zlar jamlangan. To'plam Sharq va G'arb mutafakkirlarining hikmatli so'zlari, zamondosh adiblarning ijodlari asosida tuzilgan. Ana shu shodadan bir marjonni sizga ilindik:

«Kitobni xuddi yozilgan paytidagiday shoshmasdan, avaylab o'qish zarur».

Bu kabi hikmatlarni to'plovchi ijodkorlar Abdulla Raimov va Nilufar Raimova yozganidek, «Hikmatlar shodasi» kitob javoningizdagi eng ko'p foydalaniladigan qo'llanmalar safiga qo'shilsa, biz o'z oldimizga qo'ygan vazifamizni bajardik, deb hisoblaymiz.

## BU MAVZUDAGI ILK ASAR

Sarlavhani o'qib, qanday mavzu deya qiziqayotgan bo'lsangiz, navbatdagi kitob bilan siz aziz o'quvchilarni tanishtiramiz. Ushbu kitob bugungi kunning eng dolzarb muammosi – «Ommaviy madaniyat» mavzuga bag'ishlab chop etilgan O'zbekistondagi ilk asardir. Unda ommaviy madaniyatga oid asosiy nazariy qoidalar bayon etilib, uning mazmuni, asoslari batafsil tahlil etilgan. Shuhrat G'oyibnazarov muallifligida chop etilgan kitobda «Ommaviy madaniyatning maqsadi – o'smirmi jamiyatga qarshi qo'yish, to'g'ri yo'ldan og'dirish, o'zini o'zi yemiruvchi mexanizmi ishga solish, ongga giyohvandlik haqidagi afsona singishi uchun yo'l ochishdir», deb yoziladi. Bu jummalarni o'qir ekansiz, siz ham to'g'ri yo'ldan adashmay, doimo ogoh yashashga harakat qilasiz. Biz esa sizni millatimizga munosib, tarbiyali va ziyoli inson bo'lib yetishishingizga ishonamiz.

**Qarang, ushbu kitoblar haqida sizga ma'lumot berib, olam-olam zavq oldik. Agar bu asarlarni to'liq mutolaa qilsangiz, bundan-da ko'p taassurotlar olishingiz shubhasiz. Biz esa sizlarni yanada mazmunli kitoblar bilan tanishtirishda davom etamiz.**

8

## ENG KATTA AKVAPARKLAR

Bolajonlar, dunyodagi eng katta akvopark qayerda joylashganini bilasizmi? Unday bo'lsa, maqolamizni diqqat bilan o'qing.

Yaponiyadagi «Ummon gumbazi» deb nomlangan ko'ngilochar maskan dunyodagi eng katta usti yopiq akvopark hisoblanadi.

«Sun'iy jannat» deya nom qozongan ushbu maskanda bir vaqtning o'zida 10 000 kishi hordiq chiqarishi mumkin. Dam olish maskani gumbazining balandligi 38 metr, suvning issiqlik darajasi esa 28 darajani tashkil qiladi. To'lqinlanib turuvchi sun'iy dengiz qirg'oqlari oq qum bilan qoplanib, atrofiga turli tropik o'simliklar ekilgan.

\*\*\*



Skandinaviyada yana bir usti yopiq «Serena» deb nomlangan akvopark barpo etilgan. Bu maskan ham yil bo'yi hordiq olivchilarni o'z bag'riga chorlaydi. 150 ta atraksiyon jamlangan ushbu akvoparkda «Yovvoyi oqim», «Qora tuynuk» singari qurilmalar eng hayratlanarlisi sanaladi. Ularning jami uzunligi 140 metrga tashkil qiladi. Ushbu maskanda sport zali, suvli massaj vannalari ham mavjud. Ana shunaqa!

Internet materiallari asosida  
Nigora ABDUNAZAROVA  
tayyorladi

### Paranda qilsa!

Aziz qizlarjon! Ushbu ruknimiz orqali berilayotgan turli shirinliklar, salatlarining tayyorlanishi haqidagi foydali maslahatlar bilan muntazam tanishib borayotgan bo'lsangiz kerak-a? Bugun biz sizlarga tavsiya qiladigan pishirig'imiz ham oila a'zolaringizga birdek manzur bo'lishiga ishonamiz.

## TURSHAKKULCHA SHIRINLIGI

**Kerakli masalliq:** 500 gr un, 150 gr shakar, 1 choyqoshiq limon kislotasi, 20 gr xamirturush, bir chimdim tuz, 600 ml issiq sut, 3 dona tuxum, 100 gr eritilgan sariyog', 100 gr bargak, 150 gr apelsin sharbati yoki mineral suv, 200 gr tvorog.

**Tayyorlanishi:** katta idishga un, 90 gr shakar, limon kislotasi va bir chimdim tuz solinadi. Xamirturush 100 gr shakar bilan issiq sutga aralashiriladi. Yuqoridagi masalliq solingan idishga 2 dona tuxum, xamirturushli sut, eritilgan sariyog' qo'shilib, yumshoq xamir qoriladi. Ustiga sochiq yopilib, ko'pchishi uchun 30 daqiqa iliq



joyga qo'yiladi.

Qolgan sutga 50 gr shakar solib, qaynatiladi. Bargak mayda to'g'ralib, apelsin sharbati yoki mineral suvga biroz bo'ktililadi. Tvorog elakdan o'tkaziladi.

Xamir 2 qismga bo'linadi va har biri aylana shaklida yoyiladi. Xamir ustiga tvorogli aralashma va bargak taqsimlab yoyiladi. Chetlariga tuxum oqi surilib, rulet shaklida o'raladi. Ustiga esa tuxum sarig'i surilib, so'ngra 170 darajada qizdirilgan gaz pechida 50 daqiqa davomida pishiriladi.

Yogimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi

## KALITDAGI IBRATLI SO'ZNI O'QING-CHI!

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

→	2	3	4	2	1	3	*	4
	6	6	5	7	5	6		6
3	2	2	2	3	2	1	3	*
	7	5	9	6	6	5	7	6
1	3	3	2	2	1	2	3	4
	6	6	5	7	5	9	6	5
3	4	3	*	4	3	2	2	4
	6	7	6		6	7	5	9
3	1	1	1	3	1	*	*	2
	6	7	5	7	6	10		7
4	3	2	*	1	2	4	3	2
	7	6	5		8	8	7	8

1 2 3 4  
5 G R Q L  
6 Y B I Z  
7 N A O' M  
8 T E U  
9  
10

belgilar o'rnini anglatadi.

Raqamlarni mos

harf va tinish belgilar bilan almashtirish

asosida jumboqni hal eting. Bunda ulardan

Sohibqiron bobomiz Amir Temur yozib qoldirgan ibratli so'zlardan birini bilib olasiz.

Husan ORIPOV tuzdi

Chizmaning chap tomonidagi oddiy kasr tarzidagi raqamlar o'ng tomondagi harf va tinish

7-aprel 2014

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOILOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markazi

Bosh muharrir  
Feruz ADOLOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonilla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Feruz JALILOVA,  
Sa'dullo TURSINOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir  
Sayyora QODIROVA  
Rassom  
Feruz MATYOQUBOV  
Dizayner  
Olovuddin ORIPOV

Manzillimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 53699  
Buyurtma N: J 9593